

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY O‘YINLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

*Bo‘riyeva Sitora Rustam qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi.*

Annotatsiya: Uzluksiz ta’limning bosh bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim sohasi, maktabgacha yoshdagi bolalarни har tomonlama yetuk, sog‘lom, ham jismoniy, estetik, mehnat jihatdan voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali tayyorlash, ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashni nazarda tutadi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi 3 yoshdan 7 yoshgacha bolalarda, ijodiy o‘yinlarning turlari, ahamiyati, bolalarning hayotidagi o‘rnii, ijodiy o‘yinlarning maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’siri, o‘yin orqali bolalarga ta’lim-tarbiya berish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan bir qator tavsiyalar, ma’lumotlar berib o‘tilgan. Shuningdek maqolada o‘yinlarning bola ta’lim va tarbiyasiga ta’siri haqida ham yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ijodiy o‘yin, ta’lim, tarbiya, bola, axborot, innovatsiya, ta’sir, omil, kompetensiya, ko‘nikma, faoliyat, texnologiya, shakllanish, rivojlanish.

ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ ИГР У ДОШКОЛЬНИКОВ

*Бўриева Ситора Рустам қизи
преподаватель Ташкентского университета прикладных наук.*

Аннотация: Область дошкольного образования, являющаяся основным звеном непрерывного образования, заключается в том, чтобы сделать дошкольников зрелыми, здоровыми, физически, эстетически и профессионально, эффективно подготовить их к образовательному процессу. Речь идет о внедрении форм и методов воспитания. и обучение и воспитание духовно зрелого поколения. В данной статье рассмотрены виды и значение творческих игр для дошкольников от 3 до 7 лет, роль творческих игр в жизни детей дошкольного возраста, ряд рекомендаций и информации направленной. при формировании у детей навыков обучения и воспитания.

Ключевые слова: творческая игра, образование, воспитание, ребенок, информация, новаторство, влияние, фактор, компетентность, умение, деятельность, технология, формирование, развитие.

TECHNOLOGY OF USE OF CREATIVE GAMES IN PRESCHOOL CHILDREN

*Bo‘riyeva Sitora Rustam qizi
eacher at Tashkent University of Applied Sciences.*

Abstract: The field of preschool education, which is the main link of continuous education, is to make preschool children mature, healthy, physically, aesthetically, and professionally, effectively prepare them for the educational process. It refers to the introduction of forms and methods of education and training and the upbringing of a spiritually mature generation. In this article, the types and importance of creative games for preschool children from 3 to 7 years old, the role of creative games in preschool children’s lives effect, a number of recommendations and information aimed at forming children’s education and training skills through games are given. Also, the article also sheds light on the impact of games on children’s education and upbringing.

Key words: creative game, education, upbringing, child, information, innovation, influence, factor, competence, skill, activity, technology, formation, development.

Kirish. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022 2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da Maktabgacha ta’lim tizimiga alohida to‘xtalib o‘tilgan va bir qancha vazifalar belgilab berilgan. Maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini oshirish 1 to‘g‘risida bir qator tashabbuslar keltirilgan. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Vazirlar mahkamasining qabul qilgan qarori hamda «Ilk qadam» Davlat o‘quv dasturining ishlab chiqilishi, 2022 yil 4-fevralda qayta Takomillashtirilgan nashrning chop etilishi, 2020 yil 6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni maktabga tayyorlashga doir “Ilm yo‘li” variativ dasturining va bir qator innovatsion dasturlarning yaratilishi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta’limiga samarali tayyorlash uchun

yanada keng imkoniyatlar yaratdi.

So'nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu tizimga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu masalaga doir bir necha yig'ilish o'tkazilb tarixiy qarorlar qabul qilinmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da Maktabgacha ta'lim tizimiga alohida to'xtalib o'tilgan va bir qancha vazifalar belgilab berilgan. Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini oshirish[1] to'g'risida bir qator tashabbuslar keltirilgan.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi Vazirlar mahkamasining qabul qilgan qarori hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturining ishlab chiqilishi, 2022 yil 4-fevralda qayta Takomillashtirilgan nashrning chop etilishi, 2020 yil 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlashga doir "Ilm yo'li" variativ dasturining va bir qator innovatsion dasturlarning yaratilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta'limiga samarali tayyorlash uchun yanada keng imkoniyatlar yaratdi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotchanlikni shakllantirishda ijodiy o'yinlardan foydalanish texnologiyasini joriy etish va amalga oshirishda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini, maktabgacha yoshdagi bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya berish sohasidagi o'quv-metodik qo'llanmalarni, metodik tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini loyihalashtirish, qurish, jihozlash va ularning faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi. Bolalarda muloqotchanlikni shakllantirish jarayoni asosida bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon olib boriladi

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Buyuk allomalarimiz o'z asarlarida muloqotchanlik, ijodiy o'yinlarning bola rivojlanishidagi ahamiyatini o'rganib, turli fikrlar bildirib o'tishgan. Yusuf Xos-Hojib, Axmad Yugnakiy, Bahovuddin Naqshbandiy, Shayh Najmiddin Kubro, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Farg'oniy, Axmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy, Imom al Buxoriy, va Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar o'z hayoti va ijodiy faoliyati davomida farzand tarbiyasi, bola shakllanishida atrof-muhit ta'siri to'g'risida ishlar olib borishgan.

Muloqot shaxslararo munosabatlarning shunday ko'rinishidirki, uning yordamida odamlar birlari bilan o'zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, bir-birlarini tushunadilar. L. S. Vigotskiy, A. N. Leont'ev, A.R. Luriya, D.B. El'konin, A. Zaporojets, M. I. Lisina tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri - bu muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V. Zaporojets va M. I. Lisinalar tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlar tarzida rivojlanib boradi. Shaxsni shakllantirish va rivojlantirishda muloqotning etakchi roli haqidagi g'oyalari (L. S. Vygodskiy, V. I. Lubovskiy, A. R. Luriya, S. L. Rubinshteyn); hissiy tartibga solish tizimini darajali tashkil etish modeli (V.V. Lebedinskiy va boshqalar, 1990, M.K. Bardyshevskaya, V.V. Lebedinskiy, 2003); aloqa nazariyasi M.I. Lisina; qobiliyatlar nazariyasi B.M. Teplova; G.S. ning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish kontseptsiyasi kabi mavzular o'rganib chiqilgan. Bolalar bilan muomala qilish pedagogning o'z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Tarbiyachi ya'ni Pedagog o'z kasbining mohir ustasi bo'lishida undagi bolalar bilan bo'lgan hamkorlik, muloqot ya'ni kommunikativlik o'z aksini ko'rsatadi. U bolalar bilan faoliyatni samarali olib borishni, so'zlashishni bilishi, suhbat, hikoya qilish kabi usullaridan foydalanishi, ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar bilan muloqotni yo'lga qo'ya olishi lozim. Muloqot, kommunikativlik qobiliyati har bir bolada to'liq va erkin shakllangan deya olish mushkul. Shu sababli bolani jamoaga kira olishi, o'z tengdoshlari bilan muloqotga kirishida pedagoglik mahorati katta rol o'ynaydi.

NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishda ijodiy o'yinlarning ahamiyati katta hisoblanadi. Ijodiy o'yinlarni bolalarning o'zлари o'ylab topadilar. Unda oldindan belgilab qo'yilgan qoidalar bo'lmaydi. Qoidalar bolalar tomonidan o'yin jarayonida o'ylab topiladi. Bolaning maktabgacha yosh davrini o'zlashtirish yoshi deb ta'riflash mumkin. Bunda bolalarning faol (mahsuldar) tasavvuri amaliy faoliyatdan ajralib, bolaning mustaqillikka ega bo'lish va uni taxmin qilish boshlanadigan davridir. Tasavvur tasvirlari ancha to'liq va aniqroq bo'lib, bola haqiqatni takrorlashni boshlaydi. Bola real va xayoliy jarayonlarni aniq ajrata boshlaydi[2]. Maktabgacha yoshda asta-sekin xayoliy narsalar bilan sof ramziy narsalarni almashtirish boshlanadi. Tasavvurning shakllanishi nutqning

rivojlanishiga bog'liq holda sodir bo'ladi. "Bu yoshda tasavvur kuchayadi bolaning tashqi muhit bilan munosabatda bo'lish qobiliyati unga hissa qo'shadi assimilyatsiya, tafakkur bilan birga bilish vositasi sifatida xizmat qiladi"[2]. Maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqot qobiliyatlarini shakllantirishning dolzarblii pedagogik darajada bolaning ijtimoiy rivojlangan shaxsini shakllantirish jamiyatning ijtimoiy tartibi bilan belgilanadi. Yetarli daraja zaruriylardan biri bo'lgan muloqot qobiliyatlarini shakllantirish bolaning o'rghanishga tayyorgarligining tarkibiy qismlari, unga imkoniyat yaratadi.

Maktab ostonasiga qadam qo'ygandan so'ng bolalar yangi jamoada , yangi muhitda xar bir dars mashg'ulotlarida muloqotga kirashadilar[3]. Bolalarni bir yillik majburiy tayyorlashda "Ilm yo'li" variativ dasturi bolalarning to'laqonli rivojlanishi, tarbiyalanishi va o'qishini, uning maktabda samarali tayyorlanishiga qaratilgan bo'lib, unda halqaro tajribalar hisobga olingan.

"Ilm yo'li" variativ dasturi bolaning to'laqonli rivojlanishi, tarbiyalanishi va o'qishini, uning maktabda ta'lim olishga samarali tayyorlanishini ta'minlashga qaratilgan, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha xalqaro tajribalarning hisobga olinib, ishlab chiqilgan hujjat hisoblanadi.

6-7 yoshli Maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi ehtiyoji bo'lib ham o'z tengdoshlari, ham kattalar bilan muloqoti sanaladi. Oldingi yosh davridagidek yetakchi faoliyat bo'lib syujetli-rolli o'yinlar qolaveradi. Maktabagacha yoshdagi bolalarda o'yinlarning o'ziga xosligi bo'lib shu narsa hisoblanadiki, bunda bolalar kishilarning murakkab o'zaro harakatlarni o'zlashtirishni va uni amalgalashirib ko'rishni, atrof-muhitdagi asosiy hayotiy vaziyatlarni sinab ko'rishni boshlaydilar. Bu yoshdagi muloqot vaziyatli-shaxsiy, ya'ni, berilgan konkret vaqtidagi vaziyatni emas, balki "nima bo'ldi" yoki "nima bo'ladi" tarzidagi vaziyatni aks ettiruvchi sifatida bo'ladi. Muloqotning asosiy mazmuni kishilar dunyosi, xulq-ator qoidalari, tabiiy hodisalardan iborat bo'ladi. Muloqot jarayonidagi yetakchi ehtiyoj – o'zaro tushunish, his-tuyg'ularni his qilish ehtiyojidir. Bola kattalar bilan o'zining ham ijobjiy, ham salbiy yorqin kechinmalari bilan o'rtoqlashadi.

Shu jumladan, o'yin texnologiyasini Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim tarbiya jarayonida olib boorish muhim ahamiyat kasb etadi. Bola dunyoni o'yin orqali taniydi. O'yin texnologiyasi ham o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalgalashirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

L.S. Vigotskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi.

Har qanday o'yin muayyan vazifalarni bajaradi:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalgalashirish
- tashxis;
- o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot;
- ijtimoiylashuvlik.

Ma'lumki, o'yinlar quyidagi to'rt asosiy xususiyatga ega: - erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya'ni bola o'yinni o'zi tanlaydi, unda faol ishtirok etadi. Bunda birinchi navbatda yakuniy natija emas, balki o'yin jarayoni muhim ahamiyatga ega; - ijodiy xarakter, ya'ni o'yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud; - emotsiyonal ta'sir — bola o'yinda markaziy o'rin egallashni xohlaydi, g'olib bo'lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi; - asosiy va qo'shimcha qoidalari o'yin mazmuni, uning mantiqiy ketma-ketligini belgilaydi. O'yining eng asosiy xususiyati uning ijodiyligidadir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

MUHOKAMA. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'yin yetakchi faoliyat turi sifatida qaraladi.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra (K. Groos, V Shtern, F. Bontendayk, J. Piaje, E. Erikson, L. Vigotskiy, D.B. Elkonin i dr.), o'yin kichik bolalar hayotining muhim qismi bo'lib, o'yin bilan rivojlanish uзвиy bog'liq jarayonlardir. Ekspertlarning fikricha, «O'yin bolalarga bilim doirasi va harakat ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni qurshab odamlar dunyosi va undagi o'zining o'rnini anglash uchun zarur» (Frost i Yakob, 1995g.). O'yin jarayonida bolalar hamkorlik qilishga o'rGANADI, qoidalari bilan tanishadi va yangilarini ishlab chiqadi, o'ziga va boshqalarga baho berishi ko'nikmalarini rivojlanadi, shaxsiy, jismoniy, intellektual va ijtimoiy muammolarni hal etadi.

"Ilm yo'li" variativ dasturi kuzatish va izlanish, tajriba o'tkazish va loyihaviy faoliyat kabi muhim turlarlarning ahamiyatini inkor etmagan holda, faoliyatning yetakchi turi – o'yinga pedagoglarning

diqqat-e'tiborini jalb etadi. Aynan o'yin jarayonida ma'lum darajada faoliyatning mazkur turlarining barchasida albatta ishtirok etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotchanlikni shakllantirish uchun ijodiy o'yinlardan foydalaniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ta'lif berishning asosiy faoliyati o'yin hisoblanadi. Ayniqsa ijodiy o'yinlardan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqotchanligini shakllantirishda yaxshi samara beradi[5]. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lif va tarbiya berishda ijodiy o'yinlarning ahamiyati katta hisoblanadi. Ijodiy o'yinlarni bolalarning o'zлari o'ylab topadilar. Unda oldindan belgilab qo'yilgan qoidalar bo'lmaydi. Qoidalar bolalar tomonidan o'yin jarayonida o'ylab topiladi.

XULOSA

O'yin ta'lif va mashg'ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib juda katta ta'lif-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijodiy o'yinlarda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi, bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurini, hayolini, diqqatini, xotirani faollashtirishni talab qiladi, bola masalalarni mustaqil hal qilishga o'r ganadi, o'ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o'ylab topadi, o'z bilimlaridan foydalanish va uni so'z bilan ifodalashga o'r ganadi. O'yinda aks ettirlayotgan narsani bilib olishga qiziqish uyg'onadi. Ko'pincha o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini, bilim doirasini kengaytirish uchun hizmat qiladi. Ijodiy o'yinni tor didaktik maqsadlarga bo'ysindirib bo'lmaydi, bu o'yin yordamida juda katta tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2022-2026 yilga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi"
2. O.A. Xomyakova. Использование игровых технологий в процессе формирования коммуникативных компетенций старших дошкольников. Методические рекомендации. 2019
3. 6-7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktab ta'limga tayyorlash "Ilm yo'li" Variativ dasturi
4. 2022-4 fevral "Ilk qadam" Takomillashtirilgan Davlat o'quv dasturi
5. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika" darslik T.: "Fan va texnologiya", 2012
6. Nishonova Z.T, Alimova G.K. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" 2005